

To‘qimachilik sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishda sertifikatlashtirish mexanizmini takomillashtirish yo‘llari

TDIU “Yashil” iqtisodiyot va barqaror
biznes kafedrası 1-bosqich tayanch doktoranti
Ergashev A.

Annotatsiya: ushbu maqolada to‘qimachilik sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishda sertifikatlashtirish mexanizmini takomillashtirish yo‘llari, to‘qimachilik sanoati bo‘yicha xorijiy tajribalarning tahlili, mamlakatimizda olib borilayotgan yangi islohotlar, O‘zbekiston to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalari “O‘zto‘qimachilik sanoati” uyushmasining faoliyati hamda yangi innovatsion yechimlarga qaratilgan bir qator dolzarb masalalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: to‘qimachilik sanoati, yengil sanoat, yengil sanoat mahsulotlari, xorijiy tajriba, innovatsiya, takomillashtirish, xalqaro sertifikatsiyalash mexanizimi.

Аннотация: В статье изложены пути совершенствования механизма сертификации в производстве продукции текстильной промышленности, анализ зарубежного опыта в текстильной промышленности, новые реформы, проводимые в нашей стране, деятельность предприятий текстильной и швейно-трикотажной промышленности Узбекистана “Узбекская ассоциация текстильной промышленности” и ряд актуальных вопросов, направленных на новые инновационные решения.

Ключевые слова: текстильная промышленность, легкая промышленность, продукция легкой промышленности, зарубежный опыт, инновации, совершенствование, механизм международной сертификации.

Annotation: This article describes ways of improving the mechanism of certification in the production of textile products, analysis of foreign experience in the textile industry, new reforms carried out in our country, the activities of the Uzbekistan Association of Textile and Sewing and Knitting Enterprises and a number of topical issues aimed at new innovative solutions.

Key words: This is the case of textile industry, light industry, light industry products, foreign experience, innovation, improvement, international certification mechanism.

Bugungi kunda iqtisodiyot sohasida to‘qimachilik sanoati alohida o‘rin tutadigan, dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Dunyo tajribasida ham to‘qimachilik sanoati tez sur‘atlarda rivojlanib borayotgan va yangi innovatsiyalar qo‘llanib kelinayotgan tarmoq sifatida yuksalib bormoqda.

To‘qimachilik sanoatida mehnat hajmi murakkab darajada bo‘lmaganligi sababli ham bugungi kunda yengil sanoat tarkibida faoliyat olib boradigan tarmoqlardan biri sanaladi. Yengil sanoat deganda turli xil o‘simliklardan olinadigan tolalar, jun va sun‘iy sintetik tolalardan tayyorlanadigan turli xil gazlamalar, ip va boshqa turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan faoliyat turini o‘z ichiga qamrab olgan tarmoqqa aytiladi. To‘qimachilik sanoati tarkibi bir necha yo‘nalishlarga bo‘lingan bo‘lib, ushbu yo‘nalishlarga quyidagilar kiradi:

- to‘qimachilik xom ashyosini dastlabki qayta ishlash;
- ip gazlama, zig‘ir, kanop, jun tolasidan gazlama tayyorlash;
- shoyi, jun gazlama, noto‘qima materiallar, to‘r to‘qish;
- to‘qimachilik attorlik, trikotaj, kigiznamat bosish kabi yo‘nalishlarni o‘z

ichiga oladi. Ushbu yo‘nalishlar to‘qimachilik sanoatini rivojlantirib beruvchi asosiy yo‘nalishlar bo‘lib, hozirgi vaqtda biznes faoliyati bilan bo‘liq bo‘lgan eng serdaromad yo‘nalisharga aylanib bormoqda. Insoniyat borki, kiyim-kechaksiz ust-boshsiz, shoyi-matosiz hamda yengil sanoat tarmog‘ida ishlab chiqarilayotgan turli xil mahsulotlarisiz hayot tarzini tassavur etib bo‘lmaydi.

Chunki, insoniyatning birlamchi eng asosiy ehtiyojlaridan biri kiyim-kechak mahsulotlari hisoblanadi. Shuning uchun ham to‘qimachilik sanoati eng dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan tarmog‘ sifatida qaraladi. Hozirgi kunda, to‘qimachilik sanoati mahsulotlari kiyimbosh va poyabzal ishlab chiqarishda, shuningdek, mebel, mashinasozlik sanoati va boshqa sohalarda keng qo‘llanib kelinmoqda.

O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoati yengil sanoatning eng yetakchi tarmog‘i sifatida baholanadi. Chunki, yengil sanoat tarmog‘ida asosan to‘qimachilik sanoati mahsulotlariga bo‘lgan talab yildan-yilga ortiqb bormoqda.

Mamlakatimizda ham to‘qimachilik sanoatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida, Muhtaram Prezidentimiz tomonidan yangi amaliy islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-dekabrdagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5285-son Farmoniga ko‘ra, quyidagi bir qator dolzarb masalalar hal qilinishi lozim bo‘lgan muammolar sifatida belgilab berilgan:

- birinchidan, tarmoqning yetarli salohiyatiga qaramasdan, yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotni ishlab chiqarishda uyg‘unlashgan texnologik zanjirning mavjud emasligi sababli 2017-yilning birinchi yarim yilligida ishlab chiqarilayotgan to‘qimachilik mahsulotlarining respublika yalpi ichki mahsulotidagi ulushi atigi 4,6 foizni tashkil etgan;

- ikkinchidan, to'qimachilik sanoatining boshqaruv tizimi tarmoqning zamonaviy rivojlanish tendensiyalariga javob bermaydi, bu esa hal etilmagan muammolarning to'planib qolishiga olib kelmoqda hamda uning jadal modernizatsiya qilinishiga to'sqinlik qilmoqda;

- uchinchidan, milliy standartlar va to'qimachilik mahsulotlarining sinovlari bo'yicha laboratoriyalarning xalqaro standartlar va talablar bilan uyg'unlashtirish ishlarining qoniqarsizligi, shuningdek, sifat menejmenti zamonaviy tizimlarini joriy etishning past darajada ekanligi mahalliy mahsulotlarni yirik xorijiy savdo bozorlariga chiqarishga, eksport salohiyatini yuksaltirishga hamda mahsulotlar sifati va xavfsizligiga bo'lgan ishonchni oshirishga to'siq bo'lmoqda;

- to'rtinchidan, tarmoqqa zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish darajasi mavjud muammolarni tizimli tahlil qilish va to'qimachilik sanoati rivojlanishining istiqbolli yo'nalishlarini belgilash uchun shart-sharoit yaratilmagan;

- beshinchidan, xomashyo va ishlab chiqarish resurslarining nooqilona taqsimlanishi, logistika va muhandislik infratuzilmasini tashkil etishdagi kamchiliklar ishlab chiqarish quvvatlari ancha qismining to'xtab qolishiga, iqtisodiy yo'qotishlarga va oqibatda mahsulotlar tannarxining oshishiga, shuningdek, ishlab chiqarish rentabelligining pasayishiga olib kelmoqda;

- oltinchidan, to'qimachilik yarim tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilishning barqaror ustunlik qilishi, yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va jahon bozorlarida munosib raqobatlashishga qodir bo'lgan milliy brendlarni shakllantirishning yetarli darajada emasligi to'qimachilik sanoati korxonalarini daromadlarini oshirish imkonini cheklamoqda;

- yettinchidan, kadrlar tayyorlash tizimi to'qimachilik sanoatining real ehtiyojlariga javob bermaydi, tarmoqni rivojlantirishning dolzarb masalalari bo'yicha o'qitishning innovatsion yo'nalishlarini joriy etish va ilmiy tadqiqotlarni

chuqurlashtirish yuzasidan xalqaro hamkorlik yo'lga qo'yilmagan¹ligi asosiy muammolar sifaida ko'rsatib o'tilgan.

Bundan ko'rinadiki, to'qimachilik sanoati tarmog'ida bugungi kunda hal qilinishi lozim bo'lgan dolzarb muammolar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish uchun tarmog'ni innovatsion yangi texnologiyalar bilan rivojlantirish va takomillashtirish ng muhim innovatsion yechimlardan biri sanaladi. Chunki, innovatsiya tatbiq etilishi tarmoqdagi yuqorida ko'rsatib o'tilgan muammolarni hal qilish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Xususan, to'qimachilik sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishda sertifikatlashtirish eng dolzarb muammolardan biriga aylanib bormoqda. Ushbu muammoni hal qilish uchun zamonaviy yechimlarni amaliyotga tatbiq etish yangi mexanizmni shakllanishga xizmat qiladi. To'qimachilik sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishda sertifikatlashtirish mexanzimni quyidagi takomillashtirish yo'llar mavjud. Jumladan:

- rivojlangan davlatlardagi xalqaro sertifikatlashtirish mexanzimlarini tahlil qilish va yangiliklarni o'rganish;
- xalqaro sertifikatlash tizimidagi yangi innovatsiyalardan samarali foydalanish amaliyotini joriy etish;
- sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishni xalqaro sertifikatlash talablariga moslashtirish;
- xalqaro sertifikat talablari bo'yicha kadrlar malakasini oshirish;
- xalqaro sertifikatlar taqdim etadigan tashkilotlar bilan hamkorlik tizimini yangi bosqichga olib chiqish va takomillashtirish to'qimachilik tarmog'idagi muammolarni bartaraf etishga hamda yangi innovatsion yechimlarni amliyotga keng tatbiq etilishiga turtki bo'ladi. Natijada esa, to'qimachilik sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishda sertifikatlashtirish mexanizmini takomillashtirishning yangi innovatsion yo'llari joriy etilishiga xizamt qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5285-son Farmoni, 2017-yil 14-dekabr.

Mamlakatimizdagi O‘zbekiston to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalari “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-dekabrdagi PF-5285-son qarori bilan tashkil etilgan bo‘lib, tarmoqning yettita yirik korxonasi kengashi tomonidan tashkil etilgan mazkur uyushma Nizomga ko‘ra, nodavlat notijorat tashkiloti bo‘lib, uning a‘zolari 2 mingga yaqin korxonasi, shundan 1522 tasi tikuv-trikotaj, 448 tasi to‘qimachilik korxonalari va 6 tasi mashinasozlik korxonalari hisoblanadi.

Uyushmaning o‘zi o‘zbek to‘qimachilik ishlab chiqaruvchilari va tashqi investorlar, kompaniyalar va importyorlar o‘rtasida bog‘lovchi bo‘lib, to‘qimachilik va tikuvchilik sanoati sohasida boshqa davlatlar bilan aloqalar o‘rnatish va hamkorlikni rivojlantirishga ko‘maklashib² kelmoqda.

Qolaversa, jahon to‘qimachilik sanoatining o‘sishi dunyodagi eng yirik to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi mamlakatlar va to‘qimachilik eksportchilari hisobiga shakllanmoqda, bu mamlakatlar, asosan, paxta, ip, tola va boshqa tayyor mahsulotlar yoki kiyim-kechak kabi materiallarni ishlab chiqarish va sotish bilan shug‘ullanadi. Xitoy dunyodagi eng yirik to‘qimachilik ishlab chiqaruvchilari va eksportchilari bo‘lib qolsada, Yevropa Ittifoqi, Hindiston va AQSH kabi boshqa yirik to‘qimachilik bozorlari ham so‘nggi bir necha yil ichida yillik o‘shish sur‘atlarini namoyish etmoqda. Jahon to‘qimachilik sanoati dunyodagi moda bozori bilan mutanosib ravishda tez o‘zgaruvchan bo‘lishi bilan, to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi va eksport qiluvchi mamlakatlar iqtisodiyotida yanada rivojlanish imkoniyatlari mavjud. Qo‘shma Shtatlar paxta xom-ashyosining yetakchi ishlab chiqaruvchisi va eksportchisi, shu bilan birga, to‘qimachilik mahsulotlari va kiyim-kechaklarning eng yaxshi importchisi hisoblanadi. Yevropa Ittifoqining to‘qimachilik sanoati Germaniya, Ispaniya, Fransiya, Italiya va Portugaliyani o‘z ichiga oladi va jahon to‘qimachilik sanoatining 1/5 qismidan ko‘prog‘ini tashkil qiladi. Hindiston ham dunyodagi eng yirik to‘qimachilik ishlab chiqaruvchi mamlakatlar va eng yirik to‘qimachilik eksportchilaridan biridir.

² <https://uzts.uz/oztoqimachilik sanoat>.

Yiliga 30 milliard AQSH dollaridan ortiq eksport qiymatiga ega. Hindiston dunyodagi umumiy to‘qimachilik ishlab chiqarishining 6,9 % dan ortig‘iga ega va uning to‘qimachilik sanoati taxminan 150 milliard AQSH dollariga teng.

O‘zbekiston Respublikasida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2021-yilda 2 927,2 mln AQSH dollarini tashkil etib, umumiy eksportning 17,6 % ini tashkil etgan. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida Respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026-yilda Respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSH dollariga yetkazish belgilandi³.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, bugungi kunda to‘qimachilik sanoati eng serdaromad tarmoqqa aylanib bormoqda. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini yildan-yilga o‘sib borishi, ushbu tarmoqda xalqaro miqyosdagi xalqaro sertifikatlash mexanizimini yanada takomillashtirishni talab etadi. Buning uchun yuqorida ko‘rsatib o‘tilagan yangi innovatsion yo‘llarni amaliyotga keng tatbiq etish to‘qimachilik sanoati tarmog‘ida yangi imkoniyatlarini yuzaga kelishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5285-son Farmoni, 2017-yil 14-dekabr.

2. <https://uzts.uz/oztoqimachilik sanoat>.

3. Tillyaxodjayev A. To‘qimachilik sanoat korxonalarida marketing strategiyasi. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali, 2023-yil, oktyabr. № 10-son, 1091-bet.

³ Tillyaxodjayev A. To‘qimachilik sanoat korxonalarida marketing strategiyasi. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali, 2023-yil, oktyabr. № 10-son, 1091-bet.